



## O'ZBEK MILLIY MUSIQA RIVOJIDA BASTAKORLIK IJODI

---

*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*Gulshanoy Mirzaolimova Mirzohidjon qizi*  
[gulshanoymirzaolimova123@gmail.com](mailto:gulshanoymirzaolimova123@gmail.com)  
+998935877515

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek bastakorlik ijodiyotining shakllantirish jarayoni, tarixiy manbalar va namoyondalar, bastakorlik amaliyotining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, ilmiy o'rganilishi, yaratilgan manbalar, musiqa ijodiyotida samarali faoliyat olib borgan bastakorlarning hayoti, faoliyat va ijodi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy, bastakor.

O'zbek xalq mumtoz musiqa ijodiyoti xalqimiz ma'naviy merosining negizlaridan hisoblanadi. Moddiy-ma'naviy boyliklar asosida yuzaga kelgan ulkan merosning zaminida xalqimizning milliy an'analari, qadriyatlari mujassam topgan. Ma'naviy merosni o'rganish, zamonga mos rivojlantirish har bir davr taraqqiyotiyotining asosiy omillaridandir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan asosiy masalalardan biri ham kelajak avlodning kamolotiga, ta'lim-tarbiya berishning maqsadi yosh avlodni istiqbol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va musiqa ta'limiga tayyorlashdan iborat ekanligi e'tirof etilgan.

Bastakorlik- yaqin O'rta Sharq mamlakatlarida an'anaviy, mumtoz musiqa uslubi zaminida yuzaga kelgan badiiy an'ana, ijodiy kasb turi, musiqa ijodchiligi. Quyidagi ijod shoxobchalarini o'z ichiga oladi.

Xalq orasida tanilgan muayyan kuy yoki ashula yo'lining o'zgacha mustaqil ko'rinishi (qayta ohangga va usulga solib, mualliflashtirilgan namunasi)ni yaratish. Masalan, Rost maqomining "Ushshoq" sho'balari asosida yaratilgan "Ushshoqi Hoji" yoki "Samarqand Ushshog'i I-II" (Hoji Abdulaziz Abdurasulov), "Toshkent Ushshog'i I-II" (Mulla To'ychi Toshmuhammedov), "Ushshoqi Sodirxon" (Sodirxon bobosharifov) kabi asarlar;

Ma'lum cholg'u kuylarining- ashula, ashula yo'llarining – cholg'u variantlarini yaratish (Imomjon Ikromov ashulalashtirilgan "Munojot", "Cho'li Iroq" singari);



Bir necha kuy, qo'shiq yoki ashulalarni umumlashtirib bir asar yaratish (Hoji Abdulaziz Abdurasulovning "Bozurgoning", "Bebokcha" asarlari kabi)

Mustaqil asarlar (o'tmishda asosan kuy, qo'shiq va ashula yo'llari, hozirgi davrda boshqa janrlarda ham) ijod etib kelishdir.

O'rta Osiyoda bastakorlik tarixi qadimdan boshlanadi. Iste'dodli xonanda, sozanda va zamonaviy ma'nodagi bastakorlar Borbard marviy (6-7-asrlar), Abdurahmon ibn Surayj (?-743), Abduhafz So'g'diy (?-832) va boshqa Yaqin va O'rta Sharqning deyarli barch mamlakatlarida tanilgan. Abu Nasr Farobiy va Abu Ali Ibn Sino singari allomalar ham bastakorlik bilan bevosita shug'ullanishganligi haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Bu ularning ilmiy-musiqiy asarlari amaliyot bilan uzviy bog'lanishiga asos bo'lgan.

O'zbek xalqi orasida bastakorlik ayniqsa Amir Temur va temuriylar, xususan, Bobur hamda boburiylar davrida mukammallashib, ilmiy va badiiy adabiyotda atroflicha o'z tarixi va ta'rifini topgan.

Bastakorlik an'anaviy ijrochi (xonanda, ayniqsa sozanda)likdan turtki olib, maqom ijodchiligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Dastlab (13-asr) o'n ikki maqom, so'ngra (16-8-asrlar) uning zaminida Shashmaqom, Xorazm va Farg'ona- Toshkent maqom turkumlari shakllanishiga sabab bo'ldi. Maqom turkumlari tarkibida o'nlab cho'lgu ("Saqili Islimxon", "Saqili Ashkullo", "Murabbai Komil,"Saqili Niyozjonxo'ja" kabi) va ashula ("Samandariy", "Karimqulbegi" singari) yo'llari yuzaga keldi.

Bastakorlik san'ati, ayniqsa, 15-6- asrlarda ommaviylashgan: qator shoir, olim va boshqa ayni paytda bastakor ham bo'lgan. Abdurahmob jomiy "Imoma" naqshi (yoki "Naqshi mullo")ni, Alisher Navoiy bir qacha naqsh va peshravlar, Bobur "Chorgoh savti" yo'llaridagi asarini ijod etgan.

Basrakorlik san'ati asta-sekin musiqa ta'limi tizimiga kiritilmoqda, atoqli bastakorlar asarlari nashr etilib, nular ijrosi bo'yicha maxsus ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda, ayrimlarining ijodiga oid ilk tadqiqotlar yaratilmoqda. Ba'zan, asosan ko'p ovozli musiqa sohasida ijod qilgan kompozitor (Doni Zokirov, sayfi Jalil, Dadaali Soatqulov kabi)lar ham aynan bastakorlik uslublarida kuy va qo'shiqlar yaratishgan.

Musulmon Sharqida musannif, mullahhin, ohangsoz kabi atamalar bilan tanilgan. Odatda bunday san'atkorlar o'z faoliyatida ijrochi (xonanda, ko'proq sozanda)lik va ijrochilikni uzviy bog'lashgan. Abu Nasr Forobiydan boshlab Darvishali Changiy va boshqalarning musiqiy risolalari, Abulfaeaj Isfahoniy ("Kitob ul-ag'oni"), Aruziy samarqandiy ("Chohor maqola"), Alisher Navoiy



(“Majolis un-nafois”, “Holoti Pahlavon Muhammad”), Davlatshoh Samarqandiy (“Tazkirat ush-shuaro), Zayniddin Vosifiy (Badoye’ ul-vaqoye”), Bobur(“Boburnoma) va boshqa asarlarida o’nlab bastakorlar haqida tarixiy ta’rifiy ma’lumotlar mavjud. Ular garchand bastakor atamasidan foydalanishmasada, uning asil ma’nosini ochib berishgan.

Og’zaki an’anadagi musiqiy ijod sohiblari turli davr va mamlakatlar musiqa Ilmi va amaliyotida turlicha nomlanib kelingan.

Og’zaki an’anadagi musiqa, an’anaviy musiqa-musiqa ijodiyotining asosiy turlaridan. Qa-dimdan odamlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish jarayoni (mehnat, marosim va boshqalar)da yuzaga kelib, tarixiy rivoji natijasida ikkita asosiy- xalq musiqa ijodi (musiqiy folklor) va og’zaki an’anadagi professional musiqa (mumtoz musiqa, bastakorlik) qatlamlariga ajratilgan. Og’zaki an’anadagi musoqa ijodkorlari ommaviy badiiy ongning xususiyatlariga izchil tayanib, muayyan davr, uslub va boshqalarning estetik qonunlari, ijodiy qoidalariga qat’iyan bo’ysunadi. Shu nuqtai nazardan Og’zaki an’anadagi musiqa aksar hollarda individual obrazlar yaratishga qaratilgan kompozitorlik ijodidan farq qiladi. O’z tabiatiga ko’ra, O’gzaki an’anadagi musiqa nota yozuvida “mustahkamlangan” mualliflik asarlardan emas, balki og’zaki shaklda, avloddan avlodga meros bo’lib o’tgan namunalardan iborat bo’ladi. Mazkur namunalarning badiiy ifodasi turli jarayonlar, o’ziga xos yo’llar orqali gavdalanadi.

Ustozlardan bevosita eshitib o’rgangan namunalarga shogirt sozanda xonandakar o’z qissalarini qo’shadilar, yoki boshqacha variant yo’llar yaratib, ijro etadilar. O’zbek musiqa merosini xalq musiqa ijodi (mehnat va marosim qo’shiqlarni, yalla, lapar, termalar, o’yin-raqs va lirik kuylar kabi) hamda og’zaki an’anadagi professional musiqa (maqom, ashula, cholg’u yo’llari va boshqalar) janrlarni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo hudidida VI asarning ikkinchi yarmi va VII asrning boshlarida yashagan afsonaviy sozanda, xonanda va bastakor Borbad Marvaziyning ijodiy ijrochilik merosi kasbiy musiqa ijodiyotining ilk qadamlari deb e’tirof etiladi. Manbalarda bastakorlik ijodiyoti, ajam xalqlarining keyingi tarixiy rivoji yo’lida 10 o’ziga tasnif etilgan guvohi bo’lamiz. Bu jarayonni Abul Faraj al-Isfahoniy o’zining “Qo’shiqlar kitobi” asarida muxtasar qiladi va VII-IX asrlarda yaratilgan 1000 ga yaqin qo’shiqlar haqida ma’lumotlar bayon etadi. Bastakorlik ijodiyotining tadrijiy jarayonida “Ilk o’rta asrlar bastakorligi”, “Borbad ijodi”, “Abul Faraj al-Istahoniy ijodi va xususan, uning “Qo’shiqlar kitobi” alohida ahamiyatga egaligi fanda e’tirof



etiladi. Bastakorlik ijodining mahsuli bo'lmish mumtoz musiqa o'ziga xos tizimga keltiradi va 12 maqom tizimida, bir shaklda uyg'unlashdi.

Sharq musiqasida keng tarqalgan "12 maqom" sistemasi ham ana shundan boshlangan", 12 maqom tizimidagi Rost, Isfahon, Iroq, Ko'chak, Buzurg, Hiroj, Busalik, Ushshoq, Husayniy, Zangula, Navo, Rahoviy kabi turkumiy asarlar majmuasi bastakorlik ijodiyotining eng murakkab va mukammal namunasi sifatida keying avlod uchun namuna bo'ldi.

Bastakorlik ijodiyotining keying bosqichi maqomlar asosida yuzaga kelgan behisob namunalarni tashkil etadi. Ushbu namunalar musiqa ijodiyotidagi sho'balar manbalarda quyidagi tartibda keltirilgan: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Ashiran, Navro'zi Arab, Mohur, Navro'zi Xoro, Navro'zi Bayotiy, Hisor, Nuhuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqa, Rakb, Sabo (Navro'zi Sabo), Humoyun, Zovuliy, Isfahonak yoki Ro'yi Iroq, Bastayi Nigor, Nihovand, Javziy, Muxayyar, Ajam va Navro'zi Ajam. Temuriylar davri bastakorlari xususida teran va mazmunli ma'lumotlar mavjud. Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog'iy, Zaynulobiddin Husayniy, Binoiy va Kavkabiylarning musiqa ilmi va amaliyotiga bag'ishlangan risolalarda fanning turli yo'nalishlari ilmiy bayon etiladi. Ushbu davr madaniyatiga katta hissa qo'shgan buyuk mutaffakkirlar, davlat arboblari musiqa san'ati rivojiga alohida e'tibor bilan qaraganliklarini ko'rish mumkin. Ayniqsa, musiqa ijodiyoti Alisher Navoiy merosida alohida yoritilgan. Buning sabablaridan biri, hazrat Navoiy rahnamoligida bu jarayonga alohida ahamiyat berilganligidir. Chunonchi, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hoji Yusuf Burhon Andijoniy, Hoji Abdullo Marvarid, Husayn Boyqqarolar o'zlari musiqiy asarlar, naqsh va amallar hamda usullar ijod qilganlar va haqdagi ma'lumotlar manbalarda zikr etilgan. Jumladan, Husayn Boyqoroning 17 ta usul, Alisher Navoiyning 7 ta usul, Mirzo Ulug'bekning bir qator usullar muallifi ekanligini darvish Ali Changiy o'zining "Risolayi musiqiy" risolasida keltirib 16 o'tadi. Ularning bastakirlikda naqsh va peshravlat, "Chorgoh savti" yaratilganliklari haqidagi ma'lumotlar bir qator manbalarda bayon etilgan.

Asosiy maqsadimiz ma'naviy boyligimiz mumtoz musiqa ijodkorlari, millatimizning ma'naviy dunyosini ohanglarda ifoda etib kelgan namoyondalar, ko'p asrli tarixni bosib o'tib o'zining muayyan musiqiy an'analarni avloddan avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti tarixi va taraqqiyot yo'lini bilib va unga hissa qo'shgan avlodlarning ilmiy va ijodiy merosini ardoqlashdir. Kelajak ijodiy ishlarida ushbu an'analarga asoslanish, zamon talabi doirasida ijod etishda



zamonaviy va umumbashariy jihatlarni inobatga olgan holda munosabatda bo'lishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.S. Begmatov. “Bastakorlik ijodi” TOSHKENT – “NISO POLIGRAF” – 2017
2. X. G'ofurbekova. Bastakor Saidjon Kalonov. Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam – T., 1997.
- 3.R. Yunusov. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam, - T.,1997
4. T. G'ofurbekov. O'zbek bastakorlik ijodiyotida mualliflik masalalariga doir. Musiqa ijodiyoti masalalari. 2 to'plam, - T.,
5. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T,: O'zbekistan 1998 y. 480 b